

20-dars. 2 ga va 4 ga bo'linish alomatlari



1. Sonlar orasidan **4 ga qoldiqsiz bo'linmaydigan** sonni toping va Toshkent botanika bog'i qaysi yilda ochilganini bilib oling.

772

2 020

6 000

72 544

1 950

1 996

300 048

Bu sonlarning qaysilari **2 ga** bo'linadi? Xulosa chiqaring.

Yodda tuting! Barcha juft sonlar **2 ga** bo'linadi.

4 ga bo'linish alomati

Agar sonning oxirgi ikkita raqami **nollar** bo'lsa yoki ular hosil qilgan ikki xonali son **4 ga** bo'linsa, u holda bu son ham 4 ga bo'linadi.

234 600

6 909 328

484 344

7 340 356



2. [54 390, 249 180, 34 043, 8 742, 7 904, 6 003] natural sonlar to'plamidan quyidagilarni yozing:

a) **2 ga** bo'linadigan sonlarni;

b) **4 ga** bo'linadigan sonlarni.

Xulosa chiqaring: agar son **4 ga** bo'linsa, u ...



3. Lolalar piyozboshlar orqali ko'payadi: har bir piyozboshdan bir nechta yangi piyozbosh hosil bo'ladi. Maftuna va Komilaning har biri bittadan egatga lola piyozboshlarini ekdi. Kuzda ular hosil bo'lgan yangi piyozboshlarni sanadilar.



Maftunada

3 ta piyozbosh – 4 tadan;
5 ta piyozbosh – 2 tadan;
4 ta piyozbosh – 1 tadan
yangi piyozbosh hosil qilgan.



Komilada

4 ta piyozbosh – 4 tadan;
6 ta piyozbosh – 3 tadan;
2 ta piyozbosh – 2 tadan
yangi piyozbosh hosil qilgan.

Qizlarda jami nechta **yangi lola** bo'ladi?



4. Tenglamalarni yeching. Ildizi **4 ga** bo'linadigan tenglamalarning tagiga chizing.

a) $(x - 420) \cdot 5 = 200 \cdot 2$

d) $x \cdot 9 = 540 - 360$

b) $120 : (35 - x) = 10$

e) $70 + 8 \cdot a = 150$




5. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $62\,420 : 5 \cdot 49 - 23 \cdot (12\,476 - 11\,987)$

b) $56\,700 : 100 \cdot 52 + (12\,345 : 5 - 127)$



6. Tomorqa to'g'ri to'rtburchak shaklida. Agar tomorqaning yuzi 800 m^2 , bo'yi esa 40 m bo'lsa, uni o'rash uchun necha metr to'siq kerak bo'ladi?



7. Birinchi poyezd 4 soat davomida 115 km/h tezlik bilan, ikkinchi poyezd esa undan 2 soat ko'p vaqt davomida 17 km/h kam tezlik bilan yurdi. Qaysi poyezd ko'p va qancha ko'p yo'l bosgan?



8. Nargizada bittadan va ikkitadan gul ekishga mo'ljallangan gultuvaklar bor. Nargiza gultuvaklarga sunbul, za'faron va lola piyozboshlarini ekmoqchi. Buni necha xil usulda amalga oshirishi mumkin?



9. Amallarni bajaring.

$3\,052 : 4$

$210\,540 : 60$

$90\,100 - 307 \cdot 269$

$736\,312 : 8$

$60\,480 : 90$

$50\,200 - 86 \cdot 207$

10. Texnologiya darslari uchun qizil va yashil rangli qog'ozdan jami 20 qadoq sotib olindi. Har bir qadoqdagi varaqlar soni bir xil bo'lib, qizil qog'ozlar 240 varaq, yashil qog'ozlar esa 160 varaq edi. Qizil va yashil qog'oz necha qadoqdan sotib olingan?

